

NORMAL ANATOMIYA KAFEDRASI TARIXI

Anatomiya kafedrasini 1992 yil 15-iyuldagi 1-sonli buyrugʻi bilan “Tibbiy biologik fanlar” kafedrasini nomi bilan tashkillandi “Anatomiya va gistologiya”, “ Biokimyo va biofizika” hamda farmakologiya fanlarini oʻz ichiga olgan. Ushbu kafedra tashkil etilgandan boshlab, kafedraga to 1998 yilgacha dotsent S.M.Madaminov rahbarlik qilgan. Soʻngra tibbiyot fanlari doktori YU.N Nishonov 2001- yildan 2005 yilgacha rahbarlik qilgan.

2004-2005 oʻquv yilidan boshlab “Anatomiya va gistologiya” hamda “Patologiya asoslari va farmakologiya” kafedralari birlashtirib “Tibbiy fundamental fanlar” kafedrasiga aylantirildi va unga 2012 yilga qadar tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent A.A.Nishonova rahbarlik qilib kelgan. 2012 yildan 2013 yilgacha tibbiyot fanlari nomzodi R.M.Shermatov, 2013-2015 yillarda tibbiyot fanlari nomzodi Gʻ.N.Sultonov tibbiy fundamental fanlar kafedrasiga rahbarlik qilishgan. 2015 – 2016 yillarda kafedraga N.S Mathoshimov, 2017 – 2018 yillarda M.T Yuldashevalar rahbarlik qilishgan. 2019 yildan boshlab “Normal anatomiya” kafedrasini aloxida tashkillanib unga dotsent M.S Madaminov rahbarlik qilib kelmoqda.

Quyda xar-bir hodimlarning ish faoliyati aloxida kursatilgan:



NISHONOV YuSUF NISHONOVICH

Tibbiyot fanlari doktori, professor.

1998-2005 yillarda Toshkent davlat 2-tibbiyot instituti

Fargʻona filiali direktori

1946 yilda Fargʻona viloyati Buvayda tumanida tugʻilgan. Yusuf Nishonov 1963—1965 yillarda Qoʻqon tibbiyot bilim yurtini tamomlagan. 1968 yili Toshkent tibbiyot institutiga oʻqishga kiradi va institutni 1973 yilda “a’lo” baholarga bitirib, 1973—1983 yillarda Toshkent tibbiyot institutida stajyor tadqiqotchi, Odam anatomiyasi kafedrasida assistent, katta oʻqituvchi vazifalarida ishlagan. Yu.N.Nishonov 1983 yilda Toshkent tibbiyot instituti Ilmiy Kengashida «Jigarning 40-70% olib tashlangandan soʻng ingichka ichakning kompensator moslashuv va morfofunktsional oʻzgarishlari» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1998 yili esa Toshkent tibbiyot instituti maxsus Ilmiy Kengashida “Yoʻgʻon ichakni toʻliq olib tashlash operatsiyasidan

so'ng ingichka ichakning morfofunktsional moslashuvi va undagi o'zgarishlar" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

1992 yilda Farg'ona Davlat universiteti qoshida "Tibbiyot Markazi" tashkil etilishi munosabati bilan Yu.N.Nishanov Tibbiy fundamental fanlar kafedrasini mudiri lavozimiga tayinlandi. 1998-2005 yillarda Toshkent davlat 2-tibbiyot instituti Farg'ona filiali direktori lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Ilm-fanda, yoshlarga bilim berishda o'ta tirishqoqligining mas'uli sifatida tibbiyot fanlari doktori, professor Yu.N.Nishanov 2 marta O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga deputat etib saylangan. 2005 yilda U O'zbekiston Oliy Majlis qonunchilik palatasiga deputatlikka saylandi. 2005—2010 yillarda O'zbekiston Oliy Majlisi qonunchilik palatasining fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi, 2010—2011 yillar O'zbekiston Respublikasi «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi markaziy kengashining deputatlar guruhi maslahatchisi, 2011—2013 yillar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha "OMBUDSMAN" ning katta referenti, 2013 yildan hozirga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili, "OMBUDSMAN" ning Insonlarni konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etish bo'yicha komissiya a'zosi vazifasida ishlab kelmoqda. U o'z faoliyati davomida talabalar uchun tayyorlangan bir nechta o'quv-metodik, uslubiy qo'llanmalar muallifi bo'ldi. 2009 yili Markaziy Osiyodagi davolash-profilaktika muassasalari xodimlari va talabalari uchun OITS kasalligi profilaktikasi va uning qonuniy asoslari bo'yicha darslik chop etdi. Ilmiy izlanishlar bo'yicha 1 ta monografiya, 30 dan ortiq ilmiy maqolalar chop ettirdi. Yu.N.Nishonov 4 ta doktorlik va 6 ta nomzodlik dissertatsiyasiga opponetlik qilgan, 2 ta nomzodik va 1 ta doktorlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik qilgan.

Yusufjon Nishonovich filialning birinchi rahbari sifatida kafedralarni tajribali mutaxassis-o'qituvchilar bilan ta'minlash, professor-o'qituvchilarni malakasini oshirish, o'quv jarayonini sifatini yangi – yuqori darajaga ko'tarish, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, o'quv jarayonida o'quv texnik vositalardan samarali foydalanish va ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirilishiga a'lohida ahamiyat berdi va ushbu sohalarini rivojlanishini ta'minladi.

O'sha davrda aspiranturani o'tagan yosh olimlardan: Ashurova Manzura, SHermatov Rasuljon, Abdukarimova Nodira, G'iyosova Muxtasar, Yakubova Nilufar, Sultonov G'ofurjonlar nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar va hozirda ularning ko'pchiligi filialimizda faoliyat ko'rsatmoqdalar. 2 nafar doktoranturani bitirgan olimlar: E.Z.Isoqov va B.B.Mirzaevlar doktorlik dissertatsiyalarini yoqlab, tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ldilar va hozirda ular filialda faoliyat olib bormoqdalar.

Yusufjon Nishonov direktorlik qilgan davr mobaynida mavjud 9 ta kafedraning har birida bittadan eng zamonaviy o'quv-texnik vositalari bilan jihozlangan 9 ta ma'ruza auditoriyalari tashkil qilindi.

Yu.N.Nishonovning xizmatlari «Mehnat shuhrati» ordeni va "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni kabi Davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

MADAMINOV SODIQ MADAMINOVICH

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, FJSTI faxriy professori. Anatomiya kafelrasi mudiri



KAFEDRA MUDIRI, PROFESSOR
MADAMINOV SODIQ MADAMINOVICH

Madaminov Sodik Madaminovich 1945 yilning 20 yanvarida, Kirgiziston Respublikasi O'sh viloyati Frnuze tumani, Alg'a qishlog'ida tug'ulgan. Otasi kolxozchi, onalari uy bekasi bo'lgan. Oylada yetti nafar farzand bo'lib ularning eng kenja farzandi bo'lgan. Ustoz yoshligidanoq "shifokor Olim" bo'liman der edilar. Odatda qishloqdagi yosh bolalar to'planishib, xar kim o'zi kelajakda kim bo'lmoqdachi ekanliklari xaqida bir – birlariga maqtanishar edi. O'shanda kimdir "shofyor"

bulaman desa kimdir "magazinch" yana bittasi "brigadir" bo'laman desa yana bittasi katta bo'lsam "rais" bo'laman der edilar. Ustoz esa yuqorida aytganlaridek men katta bo'lsam "shifokor Olim" bo'laman der edilar. Xato bolalar ikki guruhga bulinib "ruslar" va "nemislar" bo'lib urish – urish uynashganda ustoz shifoxona tashkillab urushda "jaroxat" olgan askarlarni "davolashga" kirishar edi.

Yaxshi niyat va orzular ustozni tibbiyot oligoxiga yetakladi. 1968 yili Kirgiziston Davlat tibbiyot institutini, "Davolash bo'limini", birinchi bosqich talabasi bo'lish baxtiga muyassar bo'ldi. Bungacha esa Namangan tibbiyot texnikumini "Feldsherlik bulimini" imtiyozli bitirib 2 yil halqqa xizmat qilib so'ng. Uch yil Sovet ittifoqini armiyasi safida "Batalyon tibbiy bo'limi" boshlig'i lavozimida xizmat qilib kelishga ulgurgan edi. Institutga kirish imtixon davridagi bir voqeyani ustoz xech o'nutmaydi. O'shanda ximiya fanidan kafedra mudiri "o'ta qattiq qo'l" deb nom chiqargan professor Slatvitskiga imtixon topshirgan ekanlar. Savol Azot qislotasi, o'ni xayotda qullanilishi va kimyoviy xossalari xamda xosil bo'lishi xaqida bo'lib, ustoz barchasiga yaxshi javob bergan lekin Azot kislotasi xosil qilinshida nechchi atmosfera bosimi zarurligini aniq bilmagan. Javobdan qoniqqan lekin oxirgi savolga aniq javob ololmagan professor ustozga qanday baxo qo'ysh ustida uylanib qolgan. SHunda ustoz professorga qarab "Mening taqdirim xozir siz quyadigon baxoga bog'liq". Agar ikki qo'ysangiz qaytib ketaman. Bordiyu institutga kirib qolsam sizga men kimyo fanini yaxshi bilishimni albatta isbotlayman deydilar. Natijada birinchi semestrini yakunida o'sh a professor, ustozga kimyo fanidan erishgan yutuqlari uchun tashakurnoma taqdim etayotib "O'shanda ikki quymaganim senga xam, menga xam va kafedragaxam foyda keltirdi" degan ekan.

SHunday qilib 1973 yilda ustoz Qirgiziston Davlat tibbiyot instituti Davolash fakul'tetini muvoffaqqiyatli bitiradi. Xirurg – travmatolog kvalifikatsiyasi berilgach Qirgiziston Respublikaning uchta rayonidan bosh xirurglik lavozimiga taklif etiladi. Lekin institutning raaxbariyati ustozni xech

qaerga yubormay institutda Anatomiya kafedrasiga assistentlik lavozimiga taynlaydi va ilmiy tadqiqot ishlar olib borish uchun shart – sharoitlar yaratib berdi. Natijada bir qancha murakkablik va xarakterlar o'z xosilini beradi. 1987 yilda “Xar – xil bosqichdagi yurak gipertrofiyasida yuz beradigan morfofunktsional o'zgarishlar va ularni orqaga qaytish darajasi mavzusida” nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydilar. Bu davrda ikki marta Sog'liqni saqlash vazirligini tashakurnomasiga va moddiy rag'batlantirishga muvofaq bo'ldilar. Ilmiy ish davomida 2ta ratspredlojeniya kiritdilar. 1988 iyldan boshlab Qirgiziston Davlat tibbiyot instituti operativ xirurgiya va topografik anatomiya kafedrasiga katta o'qituvchilik lavozimiga taynlanadi va 1993 yilgacha faoliyat yuritadi.

1993 yilda Farg'ona Davlat universiteti qoshida “tibbiyot markazi” ochilishi munosabati bilan, ustozni ilmiy darajasi xamda o'zoq yillik pedagogik tajribasi borligini inobatga olib “tibbiyot markaziga” dotsentlik va keynchalik kafedra mudirligiga taklif etiladi.

Tibbiyot markazi yangi tashkil etilganligi sababli avvaliga “tibbiy biologik fanlari” kafedrasini mavjud bo'lib S.Madaminov usha kafedra dotsenti, 1998 yila esa aloxida kafedraga aylantirilgan “normal va patologik fiziologiya kafedrasiga kafedra mudiri lavozimiga taynlanadi. Respublika litsey va kasb – xunar kollejlari tashkil etila boshlagach 2001 yilda yangi tashkil etilgan Farg'ona shahar birinchi tibbiyot kollejida o'quv va tarbiyaviy ishlarni talab darajasida tashkillash maqsadida S.Madaminovni kollejga direktor urinbosari lavozimiga taklif etishadi va ustoz 2006 yilga qadar Farg'ona shahar birinchi tibbiyot kollejida direktor urinbosari lavozimida xizmat qiladi.

2006 yildan esa Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filialiga qaytib dekan lavozimida ishlaydi. Ustoz 2008 yildan boshlab nafaqaga chiqib oylaga bosh bo'lib yashaydilar. Lekin 2017 yilda ustozni boy tajribasidan foydalanish maqsadida Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filialiga dotsentlik lavozimiga taklif etishadi.

2019 yildan esa “Anatomiya” kafedrasini tashkil etilib, ustozni kafedra mudiri lavozimiga taynlashti. Va hozirgi kunga qadar shu lavozimda ishlab kelmoqdalar. Ustoz O'zbekiston Respublikasi mustaqiligini 30 yilligi munosabati bilan kukrak nishoni medali bilan taqdirlangan. Xoziri kunda institutimizda va shaxar xamda viloyat shifoxonalarida ustozning ko'plab shogirdlari xalqni salomatligi yulida tinmay xizmat qilishmoqda. Institutimizning o'zida bo'gungi kunda ustozning beshinchi avlod shogirdlari turli fanlardan talabalarga ustozlik qilishmoqda. Barcha shogirdlari nomidan ustozga uzoq umr, baxtu-saodat va mustaxkam salomatlik tilab qolamiz.

2022 iylda uzoq iylik va faol mexnati uchun Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti fahriy professori unvoni bilan taqdirlandi.



ABDURAXMONOV MUHAMMADJON

Tibbiyot fanlari doktori, professor.

2005-2012 yillarda Toshkent tibbiyot akademiyasi

Farg'ona filiali direktori

Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filialining o'quv, ilmiy ishlari hamda moddiy texnika bazasini rivojlanishida tibbiyot fanlari doktori, professor M.A.Abdurahmonovning alohida xizmatlari bor. U Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanida tavallud topgan. Toshkent davlat tibbiyot institutining Sanitariya-gigiena fakul'tetini tugatgan. Toshkent davlat tibbiyot institutida assistent, katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida ishlagan. Muhammadjon Abdurahmonov 2002 yil 1 martda "Структурные основы иммунно – эндокринных взаимотношений при хроническом глиотринном гепатите и некоторые пути их коррекции" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

2001-2002 yillarda Toshkent davlat 2-tibbiyot instituti Farg'ona filialining dekani, 2003-2004 yillarda direktorning O'quv va ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, 2005 yildan 2012 yilgacha filial direktori lavozimlarida ishlagan. M.A.Abdurahmonov direktorlik qilgan davrda filial To'qimachilik mavzesi, Yangi Turon ko'chasida joylashgan, maydoni 2.5 gektar, 3 ta o'quv binosi, 1 ta ma'muriy binoga ega bo'lgan yangi binolar kompleksiga ko'chib o'tdi. Filial xududini obodonlashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. U rahbarlik qilgan yillarda filialda yangi yo'nalish - "Oliy hamshiralik ishi" yo'nalishi ochildi. O'quv, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlariga, ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berildi. 2009 yilda filial respublika tibbiyot institutlari ichida birinchilar qatorida Davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tdi. M.A.Abduraxmonovning ilmiy yordami va sa'y-harakatlari tufayli filialda 2 ta nomzodlik dissertatsiyasi yoqlandi, R.M.Shermatov va N.Abdukarimovalar tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldilar.


M.A.Abduraxmonov 2000-2012 yillarda "Kommunal va mehnat gigienasi" kafedrasiga rahbarlik qilgan. Uning tashabbusi bilan "Kommunal va mehnat gigienasi" kafedrasida laboratoriya xonalari zamonaviy asbob-uskunalar va reaktivlar bilan ta'minlandi.

Uning ilmiy rahbarligida 2 nafar fan nomzodi tayyorlandi, bir necha doktorlik dissertatsiyalariga ilmiy maslahatchilik qildi. Ustoz 250 ga yaqin ilmiy ishlar, shu jumladan, 2 ta monografiya va 5 ta ilmiy-ommabop risolalar muallifidir.

YuLDASHEV Ergash Yuldashevich

Biologiya fanlari nomzodi

1992 yildan kafedra dotsenti



1938 yilda Andijon viloyatida tug'ilgan. 1961 yilda Farg'ona Davlat pedagogika institutining Biologiya va kimyo fakul'tetini tugatgan va shu institutning Zoologiya kafedrasining assistenti lavozimiga ishga qabul qilingan. 1964 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Zoologiya va parazitologiya instituti aspiranturasiga o'qishga kirib, 1969 yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan va shu institutda 1981 yilgacha katta ilmiy xodim lavozimida ishlagan. 1992 yilda Farg'ona Davlat universiteti qoshida tashkil etilgan Tibbiyot markazining "Tibbiy biologiya va kimyo" kafedrasiga ishga qabul qilingan. SHu bilan bir vaqtda 1997-1998 o'quv yilida universitet fan bo'limi boshlig'i lavozimida ishladi.


1998 yilda Tibbiyot markazi Toshkent Davlat 2-tibbiyot institutining Farg'ona filialiga aylantirilishi munosabati bilan, yangi tashkil etilgan, "Tibbiy fundamental" fanlar kafedrasida dotsent lavozimida hozirgacha ishlab kelmoqda.

Ish faoliyati davrida E.Yuldashev o'quv-uslubiy ishlar bilan bir qatorda ilmiy ishlar ham olib bordi va ularning natijalari 100 dan ortiq ilmiy maqolalar va bir qator o'quv- uslubiy ishlanmalarda bayon qilingan. Ilmiy maqolalar va ishlanmalar Moskva, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg shahri), Vil'nyus. Maxachqala va boshqa chet el shaharlarida va Respublikamizning nufuzli jurnallarida, ilmiy-amaliy anjumanlari to'plamlarida chop ettirilgan.

1975 yildan boshlab atoqli olim V.I.Tobias rahbarligida O'zbekistonda yaydoqchi hasharotlarning bitta oilasi-brakonidlar oilasining faunasini o'rganish bo'yicha ilmiy ishlar olib bormoqda va hozirgi kunda u shu soha bo'yicha nafaqat O'zbekistonda, balki O'rta Osiyoda yagona mutaxassis hisoblanadi. Respublikamizning barcha xududlarida olib borilgan ishlar natijasida brakonidlarning 300 dan ortiq turlari aniqlandi, ulardan 2 ta avlod va 10 ta tur fan uchun yangi avlod va turlardir.

E.Yuldashev "Umumiy va tibbiy genetikadan masalalar to'plami" qo'llanmasi va boshqa ko'plab uslubiy ishlar muallifidir.

1988 yilda ko'p yillik samarali mehnati uchun Farg'ona viloyati Ijroiya qo'mitasi tavsiyasiga muvofiq SSSR Oliy Soveti prezidiumi E.Yuldashevni "Mehnat fahriysi" ("Veteran truda") medali bilan mukofotlagan. SHuningdek, unga "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 15 yilligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan, bir necha marta O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Fahriy yorliqlari va pul mukofotlari bilan taqdirlangan.



KARIMOV Nosirjon Karimovich

Biologiya fanlari nomzodi,

1994-1998 yillar Tibbiy biologiya va kimyo kafedراسi mudiri, 1998-2016 yillarda O'quv va marketing xizmati bo'limi rahbari, "Biokimyo, biofizika va axborot texnologiyalari" kafedراسi dotsenti

1939 yilda Qirg'iziston Respublikasi O'sh shahrida tug'ildi. 1962 yilda Andijon Davlat pedagogika institutining kimyo va biologiya fakul'tetini tamomlagandan so'ng shu yerning o'zida ilmiy faoliyatini boshladi. Talabaligidayoq biologiya, xususan, etnomologiya fani sirlarini o'rganishga qiziqqa boshlagan. Talabalik davrida professor G.K.Dubovskiy rahbarligida bedaning asosiy zararkunandasi hisoblangan «Fitonomus qo'ng'izi va unga qarshi kurash choralari» hamda «Tut ipak qurti ipak ajratuvchi bezining qurt yoshiga qarab rivojlanishi» mavzularida ilmiy maqolalari chop etilgan. Tinimsiz o'qish va izlanishlar samarasi tufayli N.Karimov 1970 yilda akademik R.Olimjonov rahbarligida «Janubiy O'zbekistonning yangi o'zlashtirilayotgan yerlarida g'o'za nihollarining zararkunandalari va ularga qarshi ekologik kurash muammolari» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, 1975 yilda dotsentlik unvonini olishga sazovor bo'ldi.

1975 yildan boshlab Farg'ona viloyati tumanlari, xo'jaliklarida go'za zararkunandalariga qarshi kurashda integratsiya usulini ishlab chiqarishga joriy etish borasida ilmiy-amaliy izlanishlar olib bordi. Ayniqsa, Oltiariq tumani xo'jaliklarida ushbu amaliy ishlar natijasida zararkunandalarga qarshi kurashda qo'llaniladigan zaharli ximikatlarining miqdori bir necha marotaba kamayishiga, atrof-muhit ifloslanishidan saqlanishiga erishilgan.

N.Karimov 1970-1975 yillarda Janubiy-SHarkiy Qizilqum cho'llarini hamda Farg'ona vodiysi etnomofaunasini o'rganish bo'yicha qator xalqaro ilmiy ekspeditsiyalarda qatnashgan. 1968 yilda Moskva shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon etnomologlar kongressining hamda Toshkent, Sankt-Peterburg, Voronej, Kiev shaharlarida bo'lib o'tgan entomologlar jamiyati s'ezdlari qatnashchisi.

Olimning salkam 13 yillik mehnat faoliyati Toshkent Qishloq xo'jaligi institutining Farg'ona filiali bilan bog'landi. U filialda katta o'qituvchi, dotsent, fakul'tet dekani, filial direktorining o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, kafedra mudiri lavozimlarida ishlab keldi. Yuzlab shogirdlarga murabbiylik qildi. 1987-1992 yillari Farg'ona politexnika institutida ilmiy xodim va institut ilmiy bo'limi mudiri lavozimlarida mehnat qildi.

1992-1998 yillarda Farg'ona Davlat universiteti O'quv bo'limi boshlig'i, «Tibbiyot markazi»da «Tibbiy biologiya va kimyo» kafedrasini mudiri vazifasini bajardi. N.Karimovning faoliyati davrida FarDU O'quv bo'limi O'quv-uslubiy boshqarma maqomini oldi. U o'z faoliyati davomida mehnatsevarligi, printsiptialligi bilan universitet jamoasi xurmatini qozondi.

1998 yildan boshlab, hozirgacha Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filialida O'quv va marketing xizmati bo'limi boshlig'i va «Biokimyo, biofizika va axborot texnologiyalari» kafedrasini dotsenti lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmokda.

Nosirjon Karimovich o'z faoliyatining oxirgi 18 yili davomida filialda O'quv jarayonini tashkil etilishi, kafedralarda o'quv va o'quv-uslubiy ishlarni rivojlantirish, o'quv jarayoniga yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qitish sifatini yanada yuqori darajaga ko'tarish jarayonlarida o'z faoliyati va beminat maslahatlari bilan filialni rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shdi.

N.Karimovning O'quv va marketing xizmati bo'limi boshlig'i lavozimida ishlagan davrida filial ikki marta 2009 va 2014 yillarda Davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tdi. Attestatsiya natijalariga ko'ra filialda olib borilayotgan ishlar: Namunaviy o'quv rejalariga Ishchi o'quv rejalarini mos kelishi, Ishchi o'quv dasturlarini Namunaviy o'quv dasturlariga hamda Davlat ta'lim standartlariga mos kelishi, talabalar o'tayotgan ishlab chiqarish malakaviy amaliyotlarni tashkil etilishi, yakunlanishi masalalari Respublika tibbiyot Oliy ta'lim talablariga to'la javob berayotganligi Davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etildi.

Nosirjon Karimovich O'quv va marketing xizmati bo'lim boshlig'i sifatida emas, balki o'z tajribasiga tayangan holda, Oliy ta'lim sistemasi, me'yoriy hujjatlarini sifatli bajarish borasida yetuk maslahatchi sifatida filial jamoasi hamda viloyatdagi Oliy o'quv yurtlari jamoalari orasida hurmatga sazovor bo'ldi.

N.Karimov oliy o'quv yurtlarida o'qitish sistemasini yaxshi o'zlashtirgan, o'quv jarayonini tashkillash masalasida yetuk tajribaga ega mutaxassisdir. U o'zi ishlagan oliy o'quv yurtlarida o'qitishning bir qancha samarali texnologiyalarini joriy etishda faol ishtirok etgan. Ilmiy pedagogik faoliyati va jamoatchilik ishlarida faol ishtiroki uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 va 15 yilligi esdalik nishonlari bilan taqdirlangan.

N.Karimov 2 ta ilmiy-ommabop risolalar va 48 ta ilmiy maqolalar hamda 10 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifidir.



ERGASHEVA Mukaramxon Sabirjanovna

Katta o'qituvchi

Kafedrada 1994 yildan buyon faoliyat olib boradi

1963 yilda Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatida tavallud topgan. 1980 yilda Andijon Davlat tibbiyot institutining Pediatriya fakultetiga o'qishga kirib, mazkur institutni 1986 yilda muvaffaqiyatli tamomlab, 1986-1987 yillarda Farg'ona viloyat tug'ruqxonasida vrach-neonatolog mutaxassisligi bo'yicha internatura o'tagan.

Mukaramxon Ergasheva ilmiy-pedagogik faoliyatini 1994 yildan Farg'ona Davlat universiteti "Tibbiyot Markazi" Anatomiya-gistologiya kafedrasida assistentlik lavozimidan boshlagan.

U "O'zbekistonda o'suvchi dorivor o'simliklar va ularning zamonaviy tibbiyotda qo'llanilishi" mavzusida izlanishlar olib bormoqda.

2010 yil "Barkamol avlod yili" davlat dasturini ijrosini ta'minlash maqsadida filial talaba-yoshlarni sog'lomlashtirish uchun "Fitobar" tashkil etgan. Talaba qizlar umumiy qon tahlili asosida aniqlangan kamqonlikni dorivor

o'simliklar bilan davolash ishlarini o'tkazgan, olingan natijalarga asoslanib, 20 dan ortiq maqola va tezislarni Xalqaro va Respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlarida chop ettirgan. Mahalliy matbuot hamda ommaviy axborot vositalarida o'zining ilmiy ommabop maqolalari va chiqishlari bilan ishtirok etib keladi.

Mukaramxon Ergasheva o'z ustida doimiy ravishda ish olib borishi, intiluvchanligi va izlanuvchanligi natijasida katta o'qituvchi, filial Xotin-qizlar kengashi raisasi sifatida faoliyat olib borgan. Farg'ona shahrida o'tkazilayotgan barcha tadbirlarning bevosita ishtirokchisi. Hamkasblari o'rtasida hurmat qozongan.

NISHONOVA Azizaxon Abdurashidovna

*Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
2005-2012 yillarda kafedra mudiri*

1965 yilda Andijon shahrida tavallud topgan. 1982 yilda Andijon Davlat tibbiyot institutining Pediatriya fakultetiga kirib, 1988 yilda muvaffaqiyatli tamomlab, 1988-1991 yillarda aspiranturada tahsil olgan.

Azizaxon Abdurashidovna Nishonova ilmiy-pedagogik faoliyatini 1992 yilda Farg'ona Davlat universiteti qoshidagi Tibbiyot markazi Anatomiya va gistologiya kafedrasida assistentlik lavozimida boshlagan.

U 1995 yilda «Oshqozon osti bezi fermentlari sekretsiyasi duodenal korrektsiyasida nerv mexanizmlarining ahamiyati» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan, o'zining ilmiy tadqiqot faoliyati davomida 8 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 50 dan ortiq ilmiy maqolalar va tezislarni chop ettirgan.

Dotsent A.A.Nishonova "Patologiya asoslari va farmakologiya" kafedrasiga 2001 yildan 2012 yilgacha mudirlik qilgan.

A.Nishonova mehnat faoliyati davomida patologik fiziologiya, normal fiziologiya va patologiya asoslari fanlaridan davlat ta'lim standartlari hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'yicha o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-uslubiy ishlarni olib borgan.

A.Nishonova o'zining tashabbuskorligi, bilimdonligi va tashkilotchiligi bilan hamkasblari va keng jamoatchilik o'rtasida hurmat qozongan.

SHERMATOV Rasuljon Mamasiddiqovich

*Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent,
2011-2012 yillarda kafedra dotsenti, 2012-2013
yillarda kafedra mudiri, 2013-2015 yillarda filial O'quv va
marketing bo'limi boshlig'i,
2016 yildan "Jarrohlik kasalliklari va patologiya
asoslari" kafedrasini mudiri*



1966 yilda Farg'ona viloyati Buvayda tumani Buvayda qishlog'ida tavallud topgan. 1984 yil Andijon Davlat meditsina instituti pediatriya fakul'tetini bitirgan.

Pedagogik faoliyatini 1994 yildan Farg'ona davlat universiteti "Tibbiyot Markazi" Anatomiya va gistologiya kafedrasida assistentlik lavozimidan boshlagan. U izlanuvchi olim sifatida 2011 yil "Yo'g'on ichak to'liq olib tashlanganidan so'ng me'da shilliq pardasida kechadigan moslashuv jarayonlarining morfofunktsional asoslari" mavzusida 14.00.23-Gistologiya, tsitologiya va embriologiya ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan. 2011-2012 yillar kafedra dotsenti, 2012-2013 yillar Tibbiy fundamental fanlar kafedrasini mudiri, 2013-2015 yillar filial O'quv va marketing bo'limi boshlig'i lavozimlarida ishlagan.

Qator Xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlar qatnashchisi. O'z sohasiga oid 1 ta uslubiy qo'llanma va 60 dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar muallifi.

Rasuljon Mamasiddiqovich SHermatov ko'p yillik pedagogik faoliyati va yosh avlodni tarbiyalashdagi hamda ilm-fanga qo'shgan munosib xizmati uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda viloyat hokimliklarining Fahriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

2016 yildan tibbiy pedagogika fakul'teti Jarrohlik kasalliklari va patologiya asoslari kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

ABDUKARIMOVA Nodiraxon Ubaydullaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi

1998-2003 yy. assistent, 2016 yildan kafedra dotsenti

1963 yilda Farg'ona viloyati Buvayda tumanida tavallud topgan. 1987 yil Andijon Davlat tibbiyot instituti pediatriya fakul'tetiga o'qishga qabul qilingan. 1993 yilda institutni pediatriya ixtisosligi bo'yicha tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi vrach-pediatr.

1998-2001 yillarda Toshkent Davlat 2-tibbiyot institutida aspiranturada o'qigan. 2001-2003 yillarda Toshkent Davlat 2-tibbiyot instituti Farg'ona filiali Anatomiya va gistologiya kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlagan.



2004-2005 yillari Farg'ona Davlat universiteti Tibbiy bilim asoslari va Fuqaro muhofazasi kafedrasini o'qituvchisi, 2007-2009 yillari Farg'ona davlat universiteti Hayotiy faoliyat xavfsizligi kafedrasini katta o'qituvchisi lavozimlarida ishlagan. U izlanuvchi olim sifatida 2011 yil "Razvitie i stanovlenie intergrativnykh otnosheniyy v slizistoy obolochki tonkoy kishki" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan va 2013 yildan Farg'ona davlat universiteti Tibbiy bilim asoslari kafedrasini dotsenti lavozimiga o'tkazilgan. 2016 yildan filialning Jarrohlik kasalliklari va patologiya asoslari kafedrasini assistenti lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'z sohasiga oid 1 ta uslubiy qo'llanma va 70 dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar muallifi.



TILYaXODJAEVA Gulbaxor Batirovna

1999 yildan kafedra assistenti

1968 yilda Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanida tavallud topgan. 1986 yil Andijon Davlat tibbiyot institutini Davolash ishi fakul'tetiga o'qishga kiradi va uni 1992 yilda muvaffaqiyatli bitiradi. Pedagogik faoliyatini 1999 yil Toshkent davlat 2-tibbiyot instituti Farg'ona filiali Anatomiya va gistologiya kafedrasida assistenti lavozimidan boshlagan va 2005 yilgacha mazkur kafedrada faoliyat olib borgan. 2005-2013 yillar Tibbiy fundamental fanlar kafedrasida assistenti, 2013-2016 yillar Jarrohlik kasalliklari kafedrasida assistenti lavozimlarida ishlagan.

2016 yildan tibbiy pedagogika fakul'teti Jarrohlik kasalliklari va patologiya asoslari kafedrasida assistenti lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'z sohasiga 20 dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar muallifi.

SULTANOV Gafurdjon Ne'matbekovich

Tibbiyot fanlari nomzodi

